



# NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI



**2025- YIL YANVAR**

**DASTLABKI MA'LUMOT**

NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI STATISTIK BAHOLASH BO'YICHA  
O'TKAZILGAN KUZATUVLAR NATJALARINI QO'SHGAN HOLDA

## Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari

### Qurilish korxonalari soni

2025-yil 1-fevral holatiga, birlikda

2025-yil 1-fevral holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 119 tani tashkil etdi. Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 366 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 32,7 % i Navoiy shahrida joylashgan.

Navoiy sh	366	Konimex t	28
Karmana t	210	Uchquduq t	19
Qiziltepa t	180	Tomdi t	19
Navbahor t	87	G'ozg'on sh	14
Zarafshon sh	76		
Nurota t	67		
Xatirchi t	53		

### Qurilish korxonalari soni, birlikda



### Qurilish sohasida faoliyat krsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2025-yil 1-fevral holatiga, birlikda




## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2025- yilning yanvar oyida, Navoiy viloyatida jami 510,8 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 114,2 % ni tashkil etdi.


### Bajarilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar oyida hajmi, mlrd soʻmda



### Bajarilgan qurilish ishlari hajmining oʻsish surʼati

yanvar oyida, % da



*Maʼlumot uchun:* qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

# Navoiy viloyatida qurilish ishlari


2025-yilning yanvar oyida hududlar kesimida, xususan, Navoiy shahri (105,4 mlrd so'm), Tomdi tumani (75,0 mlrd so'm) va Qiziltepa tumani (58,6 mlrd so'm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

## Hududlar kesimida qurilish ishlari

yanvar oyida

O'sish sur'ati % da

Hajmi mlrd so'mda



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar oyida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 75,4% ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 106,8% ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 17,4% ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 143,6% ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 7,2% ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 148,8% ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati


yanvar oyida, % da



**Qurilish ishlari hajmiga** yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi

yanvar oyida



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 87,2 % i yoki 445,4 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 148,4 mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 33,3 % ni tashkil etdi.

33,3 %

148,4  
mlrd so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 176,1 mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 39,6 % ni tashkil etdi.

39,6 %

176,1  
mlrd so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hisssasi 120,9 mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 27,1 % ni tashkil etdi.

27,1 %

120,9  
mlrd so‘m




## Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

2025-yilning yanvar oyida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Navoiy shahri (85,2 mlrd so'm), Tomdi tumani (74,3 mlrd so'm) va Qiziltepa tumani (42,6 mlrd so'm) qayd etildi.

### Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

yanvar oyida, mlrd so'mda




Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 30,5 % ni tashkil etib, 2024-yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 6,4 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,1 % punktga kamayib 36,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,3 % punktga kamayib, 32,6 % ni tashkil etdi.

**Bino va inshootlar qurilishining jami hajmi – 385,1 mlrd so'm**






## Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumani (99,4%), Tomdi tumani (99,3%) va Navbahor tumani (98,4%) kuzatildi.

### Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi

yanvar oyida, mlrd so'mda



### Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi

yanvar oyida, % da



Uchquduq tumani

99,4



Tomdi tumani

99,3




Navbahor tumani

98,4

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 36,9 % ni tashkil etdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 23,1 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024-yilning mos davriga nisbatan 23,1 % punktga kamayib 63,1 % ni tashkil etdi.


### Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari va ulushi *yanvar oyida*



*Ma'lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Navoiy shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 48,7 % i), Karmana tumani (24,0 %) va Qiziltepa tumani (20,7 %) da kuzatildi.

### Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi

yanvar oyida, mlrd so'mda



### Fuqarolik obyektlari qurish faoliyat turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi

yanvar oyida, % da



**48,7**  
Navoiy shahar



**24,0**  
Karmana tumani



**20,7**  
Qiziltepa tumani


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga kamaydi va 4,4 % ni tashkil etdi.

Qolgan 95,6 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 3,8 % punktga ko'paydi.

### Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati


yanvar oyida



Jamiga nisbatan ulushi (% da)

Yirik qurilish tashkilotlari

4,4




95,6

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

*Ma'lumot uchun:* Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Navoiy shaharda (14,0%), Konimex tumanda (12,9%) va Karmana tumani (12,3%) kuzatildi.

### Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi yanvar oyida, mlrd so'mda



### Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari turi bo'yicha eng yuqori hududlar ulushi yanvar oyida, % da



**14,0**  
Navoiy shahari




**12,9**  
Konimex tumani



**12,3**  
Karmana tumani

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi


yanvar oyida, mlrd so'mda




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

## Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati


yanvar oyida, % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2024-yil mos davriga nisbatan **156,2 %**

2024-yil mos davriga nisbatan **102,8 %**

2024-yil mos davriga nisbatan **101,8 %**

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 152,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 156,2 % ni va ularning ulushi 29,8 ni tashkil etdi.

**Xo'jalik usulida** bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.


### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi

yanvar oyida, % da



### Hududlar kesimida jamida ulishi % da

yanvar oyida




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Tomdi tumani (98,2 %), Uchquduq tumani (90,3 %), Navoiy shahri (26,0 %) va qayd etildi.

### Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

*yanvar oyida, mlrd so'mda*



### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori ulushga ega hududlar, jamiga nisbatan

*yanvar oyida, % da*



Tomdi tumani



Uchquduq tumani




Navoiy shahri




## Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 45,7% i to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 5,2% punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,8% ni tashkil etgan holda 233,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.




### Hududlar kesimida jamida ulishi % da yanvar oyida



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (97,5 %), Qiziltepa (92,3 %) va Nurota tumani (72,6 %) to'g'ri keldi.


### Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi *yanvar oyida, mlrd so'm*



### Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori ulushga ega hududlar, jamiga nisbatan *yanvar oyida, % da*



Zarafshon shahri




Qiziltepa tumani



Nurota tumani


## Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 24,5 % ni yoki 125,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,8% ni tashkil etdi. Shundan 97,0 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,8 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 23,9 mlrd so'mni va 102,1 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 4,4 mlrd so'mni va 102,0 % ni tashkil etdi.



### Hududlar kesimida jamida ulishi % da


yanvar oyida



## Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Xatirchi tumanida (14,9 mlrd so'm), Karmana tumanida (13,2 mlrd so'm) va Navbahor tumanida (8,4 mlrd so'm) qayd etildi.

### Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar oyida, mlrd so'mda



### Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarida eng yuqori hajmga ega bo'lgan hududlar yanvar oyida, mlrd so'mda



**14,9**  
Xatirchi tumani




**13,2**  
Karmana tumani



**8,4**  
Navbahor tumani

Yanvar oyidagi hajm, (mlrd. so'mda)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 3,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 507,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 0,7 % va 99,3 % ni tashkil etdi.



**Ma'lumot uchun:**

Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichlari Navoiy shahrida (105,4 mlrd.so'm), Tomdi tumanida (75,0 mlrd.so'm) Qiziltepa tumanida (58,6 mlrd.so'm), va Uchquduq tumanda (40,5 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlari** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.